

RAMZIY LEKSEKANING POIZIYADA O'RNI MASALASI

Diyora Begjigitova Abdimannob qizi

Guliston Davlat universiteti magistranti

diyoraazizova311@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ramziy leksemaning poeziyada tutgan o'rni, badiiy tafakkur va obrazlilikni shakllantirishdagi roli atroflicha yoritilgan. Muallif ramz tushunchasining tarixiy va nazariy ildizlariga e'tibor qaratib, uning san'at, falsafa, tilshunoslik kabi turli fanlardagi talqinlariga to'xtalgan. Ayniqsa, ramz va simvol, ramz va majoz o'rtasidagi farqlar aniq ko'rsatib berilgan. Maqolada Erkin Vohidov ijodi tahlil etilib, shoir she'rlarida uchraydigan ramziy obrazlar (arslon, tulki, chumoli, jom, may, yor, hilol, yulduz, sayyoralar va boshqalar) poetik vosita sifatida qanday ishlatilgani misollar orqali izohlangan. Bu ramziy leksik birliklar poetik matnning estetik saviyasini oshirib, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, Erkin Vohidov ijodida ramzlar faqat poetik bezak emas, balki chuqur falsafiy, ijtimoiy va ruhiy mazmun yuklovchi vosita sifatida ishlatilgani ta'kidlanadi. Maqola, shuningdek, mumtoz adabiyotdagi ramziylik an'analarning zamonaviy she'riyatga ta'siri, ramzlarning milliy madaniyat va mentalitet bilan bog'liqligi kabi masalalarni ham qamrab oladi. Umuman olganda, maqola adabiy tahlil, leksik tadqiqot va poetik tafsir uyg'unligida yozilgan bo'lib, ramziylikni o'rganishga qiziqqan adabiyotshunoslar, talabalar va ijodkorlar uchun muhim ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Ramz, Simvol, Mifologik qush obrazlari, Mumtoz adabiyot, Poetik leksemalar, Ramziy ma'no, Allegoriya.

THE ROLE OF SYMBOLIC LEXICON IN POETRY

Diyora Begjigitova Abdimannob qizi

Master's student of Gulistan State University

diyoraazizova311@gmail.com

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the role of symbolic lexicon in poetry, particularly in shaping artistic thinking and imagery. The author focuses on the historical and theoretical roots of the concept of "symbol," examining its interpretations across various disciplines, including art, philosophy, and linguistics. In particular, the article clearly distinguishes between the differences of symbol and emblem, as well as between symbol and metaphor.

The article further analyzes the work of Erkin Vohidov, exploring how symbolic images such as the lion, fox, ant, goblet, wine, beloved, crescent, star, planets, and others are used as poetic devices in his poetry. These symbolic lexical units play a significant role in enhancing the aesthetic quality of poetic texts and intensifying emotional and expressive impact.

Moreover, the article emphasizes that in Erkin Vohidov's works, symbols are not mere ornamental devices but serve as profound tools carrying philosophical, social, and spiritual meanings. The article also touches on the influence of classical literature's symbolic traditions on modern poetry, as well as the relationship between symbols and national culture and mentality.

Overall, the article, blending literary analysis, lexical research, and poetic interpretation, serves as an important theoretical resource for literature scholars, students, and creative individuals interested in studying symbolism.

Keywords. Symbol, Mythological bird imagery, Classical literature, Poetic lexemes, Symbolic meaning, Allegory

Badiiy ijod jarayonida qo‘llaniladigan ramzlar o‘zining xarakteri, imkoniyatlari va bajariladigan vazifalari jihatidan alohida qimmatga ega. Borliqni o‘z holicha emas, badiiy aks ettirishning turlaridan biri ramz hisoblanib, u qadimdan to bugungi adabiy jarayongacha yashab kelmoqda. Ramziy obrazlarni o‘rganish rus adabiyotshunosligida kengroq suratda XX asr boshlaridan amalga oshirildi. N. Kostomarov¹ xalq og‘zaki ijodi poetikasi bo‘yicha shug‘ullangan folklorshunoslar ichida birinchilardan bo‘lib, bu borada samarali ishlarni olib borgan. Ramz o‘tgan asrning 80-yillaridan keyin xitoy

¹ Костомаров Н. Об историческом значении русской народной поэзии. – Харьков, 1860. – С.130

adabiyotshunosligida teran tadqiq qilina boshlangandan so'ng, olimlar tomonidan bu atamaga nisbatan turli farq qiluvchi qarashlar ilgari surila boshladi. Buning natijasida ramz haqida chuqur ilmiy asoslangan nazariy qarashlar paydo bo'ldi. Ramzning mohiyati haqidagi savollar Aristotel zamonidayoq ilm ahli oldiga qo'yilgan va to hozirgi kunga qadar bu masala oid turli xil qarashlar ilgari suriladi. O'zbekiston milliy Ensiklopediyasida ramz (arab – ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi². Shuningdek, Adabiyotshunoslik terminlari lug'atida "Ramz – (arabcha so'z bo'lib – imo-ishora, imlash) simvol, ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allergoriyaga yaqin undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Ramzning ma'nosi kontekst doirasida va shartda xabardorlik bo'lganda reallashadi"³ Ramzning ingliz tilidagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ramzga quyidagicha ta'rif beriladi: "Ramz – biror g'oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora".⁴ Muqobili hisoblangan "symbol" mantiq, tilshunoslik, psixologitida anglashiladi. Simvol – obraz va simvol – belgining o'ziga xos xususiyati, farqlari N. Kostomarov tomonidan ham ancha to'g'ri hal qilingan. Kostomarov simvollarlashtirishning turli ko'rinishlarini bir-biridan farqlanishini inson psixologik xususiyatlari bilan bog'liq holda olib qaraydi. "Simvollarlashtirish nisbatan turli sohalarida uchraydi. Farqi shundaki, ayrim hollarda (ya'ni nozik simvollarda) simvol insonning mavjud psixik xususiyatlariga suyangan holda yuzaga keladi. Boshqalarda esa, (simvol belgida) u sun'iy bo'ladi, shuning uchun ham o'ta shartli mohiyatga ega". Simvol keng ma'noda (grekcha simvol so'zidan olingan bo'lib qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a'zolarining bir-birini tanib olish uchun qo'llanadigan tarixiy belgisidir) belgi tushunchasini anglatadi. Poetik simvol tashqi ko'rinish, belgi bo'lib, undagi aniqlik, ko'rgazmalilik, ayni vaqtda badiiy shartlilik vositasida unga nisbatan kengroq abstrakt ma'no ifoda etadi. Bu simvol obrazga taalluqlidir. Simvol – belgi esa ma'nosiga xos bo'lgan sifatlarni, xususiyatlarini o'zida to'liq mujassamlashtirmaydi. Gegelning fikricha, belgidagi mohiyat va ifoda o'rtasidagi bog'lanish, aloqa ularning tasodifiy

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 346-б

³ Quronov Dilmurod va b. Adabiyotshunoslik terminlar lug'ati. –Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.125.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати 3-том, 2006. – В. 243

birlashishiga asoslanadi, xolos. Simvol – belgidagi mohiyat va ifoda o‘rtasida ichki bog‘lashining bo‘lmasligini matematik, fizik, ximik simvollarda uchratishimiz mumkin.⁵ Simvol tushunchasi faqat san’atda emas, me’morchilik, matematika, fizika, kimyo, kibirnetika, tilshunoslik, falsafa kabi ijtimoiy aniq fanlarda ham keng qo‘llaniladi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda simvollarning turli sohalarda qo‘llanishi imkoniyatlarini o‘rganish ularning ba’zilaridagi birbirlaridan farqlanuvchi tomonlarini aniqlash bilan bog‘liq semiotika fani vujudga keldiki, bu simvollar masalasini o‘rganishning muhimligi uni, ya’ni simvol – belgini badiiyad muqobili hisoblangan “symbol” mantiq, tilshunoslik, psixologiya sohasida odatda, belgi tarzida izohlanadi; badiiy san’at dinshunoslik kabi doiralarda esa u “ramz” sifatida anglashiladi. Kostomarov simvallashtirishning turli ko‘rinishlarini bir-biridan farqlanishini inson psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq holda olib qaraydi. “Simvollarsh nisbatan turli sohalarda uchraydi. Farqi shundaki, ayrim hollarda (ya’ni nozik simvollarda) simvol insonning mavjud psixik xususiyatlariga suyanan holda yuzaga keladi. Boshqalarda esa, (simvol belgida) u sun’iy bo‘ladi, shuning uchun ham o‘ta shartli mohiyatga ega”.⁶ Simvol keng ma’noda (grekcha simvol so‘zidan olingan bo‘lib qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a’zolarining bir-birini tanib olish uchun qo‘llanadigan tarixiy belgisidir) belgi tushunchasini anglatadi. Poetik simvol tashqi ko‘rinish, belgi bo‘lib, undagi aniqlik, ko‘rgazmalilik, ayni vaqtda badiiy shartlilik vositasida unga nisbatan kengroq abstrakt ma’no ifoda etadi. Bu simvol obrazga taalluqlidir. Simvol – belgi esa ma’nosiga xos bo‘lgan sifatlarni, xususiyatlarini o‘zida to‘liq mujassamlashtirmaydi. Poetik simvol tashqi ko‘rinish, belgi bo‘lib, undagi aniqlik, ko‘rgazmalilik, ayni vaqtda badiiy shartlilik vositasida unga nisbatan kengroq abstrakt ma’no ifoda etadi. Bu simvol obrazga taalluqlidir. Simvol – belgi esa ma’nosiga xos bo‘lgan sifatlarni, xususiyatlarini o‘zida to‘liq mujassamlashtirmaydi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda simvollarning turli sohalarda qo‘llanishi imkoniyatlarini o‘rganish ularning ba’zilaridagi birbirlaridan farqlanuvchi tomonlarini aniqlash bilan bog‘liq semiotika fani vujudga keldiki, bu simvollar masalasini o‘rganishning muhimligi uni, ya’ni simvol – belgini badiiy adabiyotdagi simvol obraz bilan aralashtirib yubormaslik lozimligini ko‘rsatadi. Biz keltirib o‘tgan ta’riflar ramzning lug‘aviy ma’nosini izohlashga xizmat qiladi. Ramz keng ma’noda voqelikni jonli mushohada qilish orqali yuzaga kelgan tasavvurdan iborat. Hamidulla Boltaboyev ramz va ramziylikka xos belgilarni quyidagicha ifodalaydi. “Ramz... faqat shartli ravishda va shu

⁵ Шаропов А. Оламлар ичра олам. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – В.

⁶ Костамаров Н. Об историческом значении русской народной поэзии. – Харьков, 1860

matn doirasida ko‘chma ma’no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi. Ramzning ma’nosi kontekst doirasida va shartdan xabardor bo‘lganda reallashadi. Cho‘lpon she’riyatidagi “yulduz”, “bahor”, “qish” obrazlari ramzning yorqin misoli bo‘la oladi. Jumladan, “Qalandar ishq” she’rini ishqiy mavzudagi she’r deb tushunaverish mumkin. Biroq undagi ramzlar qatida boshqa ma’no ham mustaqil holda mavjud bo‘lib, uni o‘z vaqtida shoirga ruhan yaqin bo‘lgan kishilar yaxshi tushunishgan. Sababi ular ramzlarning ma’nosi anglashiladigan kontekstdan shoirning hayot yo‘li, orzuintilishlari, she’r yozilgan paytdagi ruhiy holati va hokazo omillardan xabardor bo‘lganlar”.⁷ O‘z tabiatiga ko‘ra ramz biror voqelik to‘g‘risida umumlashma bo‘lib u aks ettirayotgan narsaning yolg‘iz o‘ziga ishora qiladi. Taniqli rus faylasufi A.F. Losev aytganidek, ramz narsaning mazmuni, mohiyati bo‘lsa ham, biroq har qanday mazmun va mohiyat narsaning ramzi bo‘la olmaydihunday xulosa qilishimiz mumkinki, narsaning har qanday mazmun mohiyati ramz bo‘la olmaydi. Narsaning mazmun-mohiyati ramzga aylanishi uchun ular o‘ziga xos ravishda qayta idrok etilishi, ma’lum darajadagi shartlilik asosida ko‘pchilik tomonidan bir xilda qabul qilinadigan darajaga etishi kerak bo‘ladi. Ramziy obrazlarning qamrovi keng bo‘lganligi sababli, biz ramziy qush obrazlariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Qushlar obrazining adabiyotda kirib kelishi xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Mifologik qush obrazining kelib chiqishi haqida folklorshunos olim Komil Imomov shunday fikrlarini bayon etadi: “Avesto” kitobida bir qator asotir qushlar olov shaklida naql etilgan. Shuningdek, talqinda har bir qushga mansub qo‘shqanotlar ham ilohiylashtirilgan. Shundan bo‘lsa kerak, majusiylar quyosh olovini orzu qilishgan va osmon olovidan qo‘shqanot qushlargina olib kelishi mumkin, degan qat’iy fikrni ma’qullashgan.

Erkin Vohidov ijodiga nazar soladigan bo‘lsak, uning ijodida ramziy poetik leksikalarning turli namunalarini ko‘rish mumkin. Shoir she’rlarida ramz va ramziy obrazlarning farqlanganligining guvohi bo‘lamiz. Chunki yuqordagi keltirilgan bu ikki tushuncha bir- biridan farq qiladi. Xususan, “Umrin daryosi” she’riy to‘plamidan olingan quyidagi sartlarda buni yaqqol aksini ko‘ramiz. Bilamizki, ba’zi bir hayvon nomlari arslon, bug‘u, bo‘ri kabilar badiiy adabiyotda razm sifatida qo‘llanadi, masalan, bug‘u timsoli Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasi mehr va oq ko‘ngillik ramzi sifatida namoyon bo‘lgan. Chumoli – mehnatkash inson ramzi, quzg‘un esa baxil inson ramzi fatida bobokolonimiz Alisher Navoiy ijodida uchraydi. Ko‘pchilik adabiyot manbalarida ramz majoz bilan yaqin turishi aytilgan, chunki majoziy obrazlarda,

⁷ Болтабоев. Адабиёт энциклопедияси.–Т.: Мумтоз сўз, 2014. – Б. 290

asosan, hayvonlar timsollari olinadi, lekin bunga chuqur yodashish noto‘g‘ri, negaki, ular ham, umuman olganda, ramziy obrazlar sirasiga kiradi. Jumladan,

Kuch sharti bilan
Sher ila sher jang qilar, ammo
Hiyla yo‘lida
Tulki bilan tulki kurashgay.

(Erkin Vohidov, “Kurash oni”)

Qo‘rquvning ko‘zi katta, yuragi kichik bo‘lur,
Qo‘rquv zo‘r kelgan yurtda **arslonlar** kuchuk bo‘lur

(Erkin Vohidov, “Umrim daryosi”)

Misralarida ham *arslon* jasorat, *tulki* ayyorlikramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi misrada keltirilgan *arslon* so‘zi majoziy ma’noda vatandagi qo‘rqoq kimsalar ramzi sifatida qo‘llanmoqda. Bunda shoir emotsional ekpressivlikni shu leksema orqali malga oshirib, aslida arslon so‘zi kuch-quvvat, qo‘rqmaslik, ramzi bo‘lsa-da, boshqa hamroh so‘zlar yordamida uning aks ma’nosi ko‘rsatilmoqda. Biz yuqorida chumili mehnatkash inson timsili sifatida qayd etdik, ammo ijodkor oz ijpodida bu so‘z o‘rnida *qumursqa* leksemasini qo‘llab, uni salbiy ma’noda faqatgina tirikchilik, qorin g‘amidagi odamlar timsoli sifatida akslantiradi va ularni dil, ishq olami yo‘q, hatto. Imoni va vijdonini qurbon qilgan halqum deya ta’kidlaydi.

Choyxonada oshxo‘rlikni baxt deb bilgan og‘ayni,
Shu bir kunlik halovatni naqd deb bilgan og‘ayni.
Qumursqadek tiriklikdan o‘zga g‘ami bo‘lmagan,
Dil olami, ishq olami, ruh olami bo‘lmagan,
Imonni ham, vijdonni ham qurbon qilgan halqum deb,
Seni xayol qildimmi men kuyganimda xalqim deb?
El mulkini bir chekkada tinch kemirib yotgan zot,
Besh tiyinga qadrini ham, xalqini ham sotgan zot,
Ko‘kragida na himmatu na g‘ayratdan asar bor,
Yuragida na oriyat, na shavq bor, na kadar bor.
Umrida hech qilgan emas, mulkdan o‘zga bir niyat,

(Erkin Vohidov, “Og‘riqli savollar”)

Adib o‘ziga xos novatorlik san’atini namoyon etib va leksemalarning yangi qirralarini kashf etadi. Buning isbotini “*Shoirlik*”, “*Yuragingda makon tutgan qul*”, “*Yangi yil munojati*”, “*Jumadan qolgan odam*” va boshqa namunalarida ko‘rishimiz mumkin. Aslida, shoir bu she’rlarida ramziylik asosida ko‘chiradi, ramz qilib emas.

Shoirlik bu – shirin jondan kechmakdir,
Limmo-lim fidolik jomin ichmakdir.
Shoirlik – jigarni ming pora etmak,
Bag‘ir qoni bilan satrlar bitmak.

(Erkin Vohidov, “Shoirlik”)

Erkin Vohidov ijodida g‘azallarga alohida o‘rin ajratilgan. Zamonaviy she’riyat vakili bo‘lishiga qaramay shoir g‘azallarga alohida mehr qaratdi. Buning natijasi o‘laroq g‘azallarning go‘zal namunalarini yaratdi. Yuqoridagi parchada *jom* leksemasi qo‘llaniladi. Bu leksema g‘azallarda keng qo‘llanilib kelinayotgan ramziy tushunchalardandir. Negaki, hayot mayxona, may esa ishq, ishqni ko‘ngillarga jo bo‘lishi ayni *jom* bilan bog‘liq. Shuningdek, *jomi jam* Jamshid jomi ham xuddi shunday obraz sifatida, ramz sifatida gavdalanadi. Barchada ham poetiklikni ta’minlashga xizmat qilgan vositalar talaygina. Masalan, poetik leksemalar sirasiga *fido*, *jom*, *pora*, *bag‘ir*, *bitmak* kabi so‘zlarni kiritsak, morfologik birliklarga *kechmak*, *ichmak*, *etmak*, *bitmak* tarkibidagi *-mak* morfemasini kiritish mumkin. Bunda aynan *jom* leksemasi ramziy leksema sifatida gavdalanadi.

Umr qoshu kiprik orasi,
Gadolikdan adolik ma’qul.
Qullar ichra eng bechorasi
Yuragingda makon tutgan **qul**

(Erkin Vohidov, “Yuragingda makon tutgan qul”)

Umrning o‘zida ramziylik bor, *godolik* leksemasi ham alloh oldida, ishdan gadolik bo‘lishi mumkin. Mumtoz adabiyot tilida bunday birliklarga alohida e’tibor qaratiladi. Shuning uchun ham gadolik, umr, qul leksemalari o‘rni bilan alohida ramziylik kasb etadi.

Ramz inson faoliyatining ajralmas qismidir. Zero muloqot jarayoni verbal shaklda yoki noverbal shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar ramzlarning o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham insonlar muloqot jarayonida yoki boshqa hollarda hayvon, qushlar,

fitonimlar, tarixiy obrazlar kabilarga ishora qiladi. Shunday ekan bu jarayonlarda ularning o‘rni katta. Aksariyat ramzlar mumtoz adabiyotda ko‘p uchraydi. Shu boisdan bunday ramzlarning katta qismi poetiklikka xizmat qiladi. Shuning uchun ham ramz sifatida ishtirok etgan bunday leksemalar poetik leksemalar sirasiga kiradi.

Ramzlarning dastlabki ma’nosidan tashqari bo‘lgan mazmuni uning ramziy ma’nosi hisoblanadi. Masalan, tulki semasi uchun aytiladigan (qanday hayvonligi) ta’rifdan tashqari ayyorlik, tilyog‘lamalik, uddaburonlik semalari uning ramziy obraz sifatidagi semalari hisoblanadi. Shuning uchun ham Sh.Usmonovning “Lingvokulturalogiya” darsligida ramzga shunday ta’rif beriladi: “Ramz – tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, onggi, tafakkuri va ruhidagi aksi. Ramz belgi bo‘lib, uning dastlabki ma’nosidan boshqa ma’no uchun shakl sifatida foydalaniladi”⁸.

Ovora bo‘lmang, ey, hassos shoirlar,
Ayol tasviriga ojiz erur she’r.
Chunki yor zulfining bir tolasiga
Tashbih topa olmay o‘tgan Alisher.

Sevgi asrorini izlamay qo‘ying,
Topilmas narsani qidirmoq nechun?
Muhabbat sirini bilolmay o‘tgan
Karbalo dashtida ovora Majnun.

Ming yilcha muqaddam Hofizi Sheroz
Bir go‘zal xoliga bo‘lgandi banda.
Tasavvur qilolmam, ne der edi u
Bukun anjumanda o‘zi bo‘lganda.

(Erkin Vohidov, “Sakkizinchi mart”)

She’riy parchada *ojiz erur, yor, zulf, tashbih, asror, muhabbat, Karbalo dashti, Majnun, muqaddam, g‘o‘zal, anjuman* kabi so‘zlarda poetiklik ifodalanadi. Bunday leksemalarni poetik leksemalar sirasiga kiritish mumkin. Bunda qo‘llanilgan *yor, zulf, Karbalo dashti, Majnun, go‘zal* kabi so‘z va leksemalarda ramziylik mavjud. Shuning uchun ham bunday leksemalarni ramziylik kasb etgan poetik leksemalar hisoblash mumkin. Chunki bularning barchasida ramziylik mavjud. *yor* mumtoz adabiyotda

⁸ Usmonova Sh. Lingvokulturalogiya. – Toshkent, 2019. – B. 139

allohga ishora qiladi. Shuning uchun ham *mashuqa*, *yor* obrazlarida ramziylikni ko‘rishimiz mumkin, yorning qora zulfi ham ramziylik ifodalaydi. Mumtoz asarlar tilida qo‘llanuvchi *Karbalo dashti* va shu dashtda sarson bo‘lgan, doimo muhabbat oshiqlik ramzi sifatida gavdalanadigan *Majnun* obrazi ham xuddi shunday. She‘iyatda Layli va Majnun, Farhod va Shirin oburazlari va ularga o‘xshatishlarda ramziylik mavjud. Shuning uchun ham ramz sifatida ularga murojaat qilishlar ko‘p uchraydi:

U she‘r tamom band etdi meni,
Asir bo‘ldim unga umrbod.
Bamisoli yor tasvirini
Oyinada ko‘rgandek Farhod.

(Erkin Vohidov, “Yo‘qolgan she‘r”)

Umuman olganda, *yor*, *oshiq*, *mashuqa*, *soqiy*, *may*, *boda*, *jom*, *qadah* kabi leksik birliklar poetiklikni ta‘minlovchi vositalar, shu bilan birga ramziy obrazlarni ham namoyon qiluvchi birliklar sanaladi.

Diyorim bir saxiy soqiy,
Orol unga mayi boqiy,
Sir-u mavjli Amudaryo
Bu qo‘llardir, bu qo‘llardir.

(Erkin Vohidov, “Qo‘llar” qasida)

Tut qadah, do‘stim, tilarman
So‘nggi qatra lazzatin,
Kim, bu lazzatsiz hayot ham,
Boda ham rohat emas

(Erkin Vohidov, “Yoshligimda..”)

Misralarda ham *qadah*, *qatra*, *boda* kabi poetik leksemalar qo‘llanilgan. Bunda qo‘llanilgan *boda* leksemasi mumtoz adabiyotda ish ramzi sifatida gavdalanadi. Shoir ham yoshlikni shunday ishqqa, muhabbatga qiyoslaydiki, yoshlik ishqidek hech narsa rohat emasligini ta‘kidlaydi. E.Vohidov ijodida bunday leksemalardan samarali foydalanadi.

Ramz haqida bo‘xtalar ekan, T.Boboyev shunday yozadi: “Simvollar zamirida hamisha yashirin o‘xshatish yotadi, ular turmush voqea-hodisalari bilan chanbarchas

bog‘liq. Simvollar har doim san’atda katta ahamiyat, kasb etib kelgan. Chunonchi, simvollar san’atining negizi bo‘lgan badiiy obraz tabiati bilan uzviy bog‘liq, harqanday obrazda shartlilik va Simvolika bo‘ladi. Chunki obraz tabiatan hayotiy hodisalarni inkduvidual shakl orqali umumlashtirar ekan, bu jarayon shartlilik va simvolikasiz bo‘lmaydi. Badiiy adabiyotda tashbih, istiora, sifatlash, parallellik ma’lum darajada simvolik hislatga egadir. Masallardagi jonlantirishlar, ertaklardagi allegorik xislatlar va, umuman, allegoriya – badiiy simvolikaning ko‘rinishlaridir”⁹. Shuning uchun ham she’riyatda, umuman, badiiy adabiyotda ramzning o‘rni va ahamiyati yuqori.

Bir she’r fikri yarq etdi nogoh,
Vujudimda g‘alayon tuydim.
Yarq etdi-yu, men bo‘lmay ogoh
Bir lahza yo‘qotdim-qo‘ydim.

(Erkin Vohidov, “Yo‘qolgan she’r”)

Keltirilgan misralarda she’rning o‘zi ham obrazlilikni ifoda etgan. Shu bois mazkur “Yo‘qolgan she’r”ning o‘zi ramz hisoblanadi.

Ramziylik jihatdan qadah ko‘ngilga, may, boda ishqqa ishora qiladi. Shunday ekan bu ramziy so‘zlardan shoir ustamonlik bilan foydalanadi:

Oqshom,
Bobur tilagan farah,
Boda kayfi, do‘stlar suhbat.
Qo‘llarimda limmo-lim qadah,
Menga keldi alyor navbati.

(Erkin Vohidov, “Oqshom”)

Aslida, *kun* va *tunning* ham o‘z ramziyligi mavjuddir. Shuning uchun ham umrning har onining ifodasida ramziylik mavjud. Masalan *lahza*, *on* – umrning tez o‘tishi, *kun*, *tun* – yaxshi, yomon kunlar, yoshlik-keksalik, boshlanish-tugash, yaxshi, yomon kunlar, yoshlik-keksalik, boshlanish-tugash, yil fasllari – umr. Bunday qiyoslashlar talaygina. Shoirning “Do‘stlarga maktub” she’ridagi quyidagi misrada ham ko‘rish mumkin:

Bukun derazamni ochdim-u sahar
Yuzimga urildi salqin shabboda.

⁹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 337

Xayolchan shivirlab qizrimtir barglar
Kuzak hikoyasin so‘ylardi bog‘da.

Ajab, bir kechada o‘zgarmish olam,
Bir kechada borliq olmish o‘zga tus.
Inson umri kabi tezdir fasl ham,
Kecha yoz edi-ku, bukun, qarang, kuz.

(Erkin Vohidov, “Do‘stlarga maktub”)

Berilgan parchada ramziylikning ajoyib va shoirga xos berilishlarini ko‘rish mumkin. She’r inson umrining o‘tkinchi ekanligiga, hayot o‘tib borishiga ishora mavjud bo‘lgani kabi. Qo‘llanilgan obrazlarda ham bu narsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Parchada keltirigan “*Xayolchan shivirlar qizrimtir barglar*” misrasidagi qizrimtir barg birligi umrning kuz fasligi ishora qilganini ko‘rsatgan. Bu narsa She’rning keyingi misralarida yaqqol namoyon bo‘ladi. “*Inson umri kabi tezdir fasl ham, Kecha yoz edi-ku, bukun, qarang, kuz*” jumllarida yoz va kuz fasllari ramziy jihatdan umrning navqironlik va keksalik davriga ishora qilgan.

Tabiat manzaralarining ramz sifatida ham ko‘plab uchratamiz. Bular she’rning poetikligini oshirishga xizmat qiladi:

Qadi yo bir hilol go‘yo
Yig‘ib atrofga yulduzlar
Jiloy-u nur darsin
Gumbazi davvorga o‘rgatmish.

(Erkin Vohidov, “Ustoz G‘ayratiyga”)

Hilol leksemasi alohida ramzni ifodalaydi. *Yoshlik, go‘zallik, yangilik* kabi ma’nolarda kelishi bor. Shoir tomonidan keksalikning holatiga ishora qilgan. Bunda shoir tomonidan keksalikning go‘zal ko‘rinishini bergan. Ustoz G‘ayratiyning yangi chiqqan oy kabi o‘z atrofiga yulduzlar – shogirtlarini yig‘ganligi, ilmni jilolangan nurga va bu narsani barchaga o‘rgatishiga ishora mavjud. Shuning uchun ham hilol ramziy ma’noga ega, she’riyatda oyga ko‘plab murojaatni uchratish mumkin. Osmon jisimlaridan foydalanganda oy, quyosh, yulduzlar va ularning turlari ham ramziylik kasb etadi. Yuqoridagi misollarda ham hilol, oy, yulduzlar, quyosh (shams) kabi osmon jismlari ramziylik kasb etib poetiklik uchun xizmat qilganligiga guvohi bo‘ldik. Tarixan yulduzlar, quyosh, oy ma’lum ramz vazifasini bajargan:

Uzoq-yaqin yulduz undan ham bisyor.
Murosa qilaman har biri bilan,
Barining ko‘nglini topmog‘im dushvor.
Mana, misol – Bahrom,
Ya’ni, qattol Mars,
Ko‘zlarida yonar jangari chaqin.

(Erkin Vohidov, “Zamin sayyorasi”)

Mars – qizil sayyora bo‘lganligi uchun ko‘plab xalqlarda urush ramzi hisoblanadi. Misrada ham uning urush ramzi ekanligiga ishora mavjud. Yoki ushbu she’rda sayyoralarning ramziy nomlari, ma’nolariga to‘xtalib o‘tadi:

Tijorat eliga —
Atorid posbon,
Xabardor bo‘lurman undan ham sergak.
Yashirib ne qildim,
O‘zingga ayon,
Savdo ahlidan ham oshnalar kerak.
Zuhalni ziyorat qilurman har kun, —
Hosil sayyorasi – do‘st bo‘lmay nega?
U menga kerakdir
Tiriklik uchun,
To‘rt milliard bolam bor,
Osonmas menga.
Chaqmoq qilichini doim o‘qtalib,
Guldirab tursa ham
Mushtariy badkor,
Bahorda foydasi tegib qolar deb,
Kuzda salom berib qo‘yaman bir bor.

(Erkin Vohidov, “Zamin sayyorasi”)

She’rda qo‘llanilgan *Atorit*, *Zuh*, *Mushtariy* kabi yulduzlar ramziy ma’noda *savdo*, *hosil* va boshqa ramziy ma’nolarda qo‘llanilgan. Insonlar tarixan ularni turli jihatlarning homiysi sifatida qarab kelgan.

Umuman olganda, ramziy leksemalar insonlar tomonidan, ularga xos bo‘lgan xarakter-xususiyatlarni o‘zida namoyon qilgan. Shoir ijodida ham bunday

leksemalardan samarali va o‘rinli foydalanilgan. Ularning barchasi majoziy ma’noda kelganligi sababli emotsional-ekspressivlikka ega bo‘ladi va she’riy misralarning poetikligini oshirishga xizmat qilgan. Shuning uchun ham bunday leksemalar ramziy poetik leksemalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 109 б.
2. Умурув Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 184 (264 б)
3. Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 22.
4. Хованская З.И. Анализ литературного произведения в современной французской филологии. – Москва: Высшая школа, 1980. – С. 99.
5. Шаропов А. Оламлар ичра олам. –Тошкент: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – В. 120
6. Эркин Воҳидов. Ишқ савдоси. –Т.: Шарқ, 2000. – Б. 359.